

POMIDOR ZANG KANASI VA UNGA QARSHI UYG‘UNLASHGAN KURASH TIZIMI

To‘lakova Azizaxon Sherzodbek qizi,

Erkinova Muattaroy Sherzodbek qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston ichki bozorida yuqori talab ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan oziq-ovqat maxsulotlari orasida pomidor mevasining o‘rni beqiyosdir. Ushbu talabni qondirishdagi eng dolzarb masala esa pomidor ekinidan yuqori xosil olish va uni turli zararkunadalardan ximoya qilishdir.

Kalit so‘z: Pomidor, kana, imago, lichinka, nimfa, kushanda, zararkunanda.

ABSTRACT

Among the food products with a high demand in the domestic market of Uzbekistan, the place of tomatoes is incomparable. The most urgent issue in meeting this demand is obtaining a high yield from the tomato crop and protecting it from various pests.

Key words: Tomato, mite, imago, larva, nymph, caterpillar, pest.

Kirish: Pomidor zang kanasi kanalar (Acariformes) turkumining to‘rt oyoqli kanalar (tetrophodili) to‘ng‘ich oilasiga mansub so‘ruvchi zararkunanda hisoblanadi. Pomidor zang kanasi juda mayda ,oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan bo‘g‘imoyoqli jonivor bo‘lib , nimfasi 100 Mk (mikron) , yetuk zoti esa 135-160 Mk keladi. Pomidor zang kanasi pomidor o‘simligidan tashqari kartoshka va baqlajon o‘simligining ham ashaddiy kushandasi bo‘lib, ekinlarning bargi, novdasi xatto mevasiga jiddiy zarar yetkazadi. Ushbu zararkunanda pomidor o‘simligining ochiq va yopiq turdagi ekinzorlarida uchraydi. Yuqori reproduktiv samaradorlikka ega bo‘lgan bu hasharot qulay sharoit tug‘ilsa , yil bo‘yi rivojlanadi.

Biologiyasi: Zang kanasi pomidor, kartoshka va baqlajonni kuchli zararlaydi. Pomidor zang kanasi yil davomida ham rivojlanishi mumkin . Zararlangan o‘simliklarning bargi ,shoxi va poyasi quriydi. Kana asosan issiqxonalarda qishlab chiqadi. Qulay sharoit tug‘ilsa, yil bo‘yi rivojlanadi. Ochiq maydondagi ekinlarga ko‘chat bilan o‘tadi .Bunda ochiq yerdagi ekinlardan kuzgi issiqxonalarga o‘tib rivojini davom ettiradi. Ko‘p qismi yozda qayerda rivojlangan bo‘lsa o‘sha yerda qishlab qoladi . Bunda yerning ustki qatlamida , xas-cho‘plar orasida nimfa holatida qishlaydi. Zararkunanda uchun eng maqbul sharoit – bu xavo xaroratining 27-28⁰ C, tuproqning namligi esa 30-40% bo‘lishidir. Ushbu sharoitlarda kana rivojlanishining bir bo‘g‘ini 6 kunda ado etiladi . Bitta urg‘ochi kana 50 tagacha tuxum qo‘yadi va 40 kundan ortiq yashaydi. Bir mavsumda kana 15 dan 25 tagacha bo‘g‘in berishi mumkin, shulardan 10-15 tasi iyun-avgustga o‘tadi .

Zarari: O‘tkazilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha pomidor zang kanasi asosan pomidor va kartoshkada bemalol va tez rivojlanadi. Undan keying o‘rinlarni qora va qizil ituzum, qo‘ypechak va baqlajon egallaydi. Qolgan ekinlarda ekinlarda zang kana rivojlana olmasligi tasdiqlangan. Kana o‘simlik barglarining ham ustki, ham ostki tarafini bosishi mumkin. Dastlab o‘simlikning pastki barglari, novdalari zararlana boshlaydi. U asta–sekin yuqoriga tarqab ketadi. Zararlangan novda qo‘ng‘ir tusga ega bo‘lib silliqlashadi, barglarida esa sariq dog‘lar paydo bo‘lib, umumiy tusi qo‘ng‘ir bo‘la boshlaydi. Zararlangan gul va mayda meva nishonalari xamda barglari qurib to‘kilib ketadi.Yirik mevalarning yuzida to‘r singari rasm paydo bo‘lib, tirishib yoriladi. Bunday mevaning sifati va ko‘rinishi yomonlashadi, qisman chiriy boshlaydi. Qattiq zararlangan o‘simlik hosili 100 % nobud bo‘ladi. Ayniqsa iyul-avgust oylarida pomidor va kechki kartoshka ko‘p talofat ko‘radi.

Qarshi kurash usullari:Zararkunandalarga qarshi agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash choralari ilmiy asoslangan xolda olib boriladi. Agrotexnik usul yordamida zararkunandani ko‘payib ketishining oldini olish, ba’zan esa butunlay qirib tashlash mumkin. Ushbu kurash usulini muvaffaqiyatli qo‘llash yo‘li bilan zararkunandalar uchun noqulay sharoit yaratish zarur. Bunday kurash choralariga qator

oralariga ishlov berish, almashlab ekish, o‘g‘itlash va sug‘orish ishlarini vaqtida amalga oshirish kabi tadbirlar kiradi. Yaxob suvi berish bilan ham yaxshi natijalarga erishiladi. O‘simlikga mineral va organik o‘g‘itlarni to‘g‘ri tanlab, ilmiy asosda berish o‘simlikning zang kana va boshqa zararkunandalarga chidamliligini oshiradi. Kaliyli va fosforli o‘g‘itlar o‘simliklarning mexanik to‘qimalarini mustahkamlab qoplovchi to‘qimasini qalinlashtiradi. Natijada zang kanasi yoki boshqa kanalarning xartumi o‘simlik shirasini so‘rish uchun qisqalik qiladi.

Biologik usul. Zang kanasi va boshqa kanalarning tabiiy kushandarlari ko‘p bo‘lib, ular o‘z vaqtida qo‘llanilganda kanalarning sonini ma‘lum darajada cheklab turadi. Bularga xammaxo‘r entomofag - oltinko‘z, kanaxo‘r trips va boshqalar kiradi. O‘zbekiston biolaboratoriyalarida oltinko‘z ko‘paytiriladi. Oltinko‘zni zang kanasiga qarshi kurashda qo‘llash yaxshi samara beradi.

Kimyoviy kurash usuli. Pomidor ekini zang kanasi bilan yoppasiga zararlangan vaqtda ularga qarshi qiruvchi chora tadbir- kimyoviy kurash choralari olib boriladi. Zang kanasiga qarshi kurashda akaritsidlardan Nissoran 10% n.k. -gektariga 0,1 kg, neoron 50% k.e — gektariga 1 litr, oltingugurt 80 % n.k - gektariga 10 kg, oltingugurtning ohakli qaynatmasi va boshqa pestitsidlar qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Sh. Sheraliyev, B.E. Murodov . “Entomologiya va fitopatologiya” Toshkent—“Yangi nashr”—2008
2. A.Sheraliyev, “Umumiy va qishloq xo‘jaligi fitopatologiyasi” . Toshkent. “TALQIN” - 2008.
3. X.X. Kimsanboyev, B.A.Sulaymonov, A.R.Anorboyev, A.A.Rustamov, “Entomologiya va fitopatologiya” , Toshkent , “NISO POLIGRAF” – 2017
4. Arslanov M.T., Komilov K.S., Aliyev SH.K., Raximov M.M “O‘simliklarni karantin zararkunanda va kasalliklari Toshkent-2021
5. SH.T,Xo‘jayev. O‘simliklarni Zararkunandalardan “Uyg‘unlashgan Ximoya Qilishning Zamonaviy Usul va Vositalari” Toshkent-2015
6. M.T.Arslonov. A.U.Sagdullayev. Sh.K.Aliyev. O.T.Xujayev. X.Z.Ablullayeva. “O‘simliklar karantini zararkunandalari tarqalishining oldini olish.Toshkent-2016